


2020- yil yanvar-iyul oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Farg'ona viloyatida jami **2814,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **100,1 %** ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo`linadi.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3074 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 419 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **116,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **55,7 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **115,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **11,2 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin **114,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **33,1 %**) o'sishidir.




Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.08.2019- yil	01.08.2020- yil	
Farg'ona viloyati	2655	3074	115,8
shaharlari:			
Farg'ona sh	703	816	116,1
Qo'qon sh	275	313	113,8
Quvasoy sh	91	111	122,0
Marg'ilon sh	248	306	123,4
tumanlar:			
Oltiariq	85	96	112,9
Qo'shtepa	92	99	107,6
Bag'dod	143	160	111,9
Buvayda	109	122	111,9
Beshariq	69	79	114,5
Quva	129	136	105,4
Uchko'prik	148	165	111,5
Rishton	66	66	100,0
So'x	30	40	133,3
Toshloq	113	129	114,2
O'zbekiston	65	79	121,5
Farg'ona t	67	94	140,3
Dang'ara	110	124	112,7
Furqat	58	70	120,7
Yozyovon	54	69	127,8



**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni
01.08.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi % da)**




Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona sh. (26,5 %), Qo'qon shahar (10,2 %) va Marg'ilon (10,0 %) shahrlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **256,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **93,1 %** ga kamaygan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **0,7 %** punktga kamayib, **9,1 %** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'qon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **23,8 %** i yoki 2019- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **60,8 %**), Quvasoy (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **29,7 %** ni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **6,3 marta ko'p**), va Yozyovon tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **33,7 %** ni, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **43,1 %**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar


- 2019- yil yanvar-iyul
- 2020- yil yanvar-iyul

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **66,3** % i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,0** % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **101,7** % ni tashkil etgan holda **1 866,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **24,6** % ni tashkil etdi yoki **691,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **98,4** % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektoring ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **95,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,4** % ni tashkil etdi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **2719,1** mlrd. so'm ishlar bajarilib, jami qurilish ishlari hajmining **96,6** % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da

2020- yil yanvar-iyul



2020- yil yanvar-iyul

Farg'ona viloyatida qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar-iyul

59,2 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 59,2 % i yoki **1667,5** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

9,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **157,0** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,4 % ni tashkil etdi.

53,9 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **898,0** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 53,9 % ni tashkil etdi.

36,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **612,5** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 36,7 % ni tashkil etdi.



**FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-iyul oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati	2 814,6	100,1	1 667,5
shaharlari:			
Farg'ona	788,8	126,4	342,0
Qo'qon	217,6	94,9	111,1
Quvasoy	140,3	50,3	130,4
Marg'ilon	363,1	144,0	318,9
tumanlar:			
Oltiariq	148,7	123,0	31,0
Qo'shtepa	131,0	100,0	46,4
Bag'dod	172,5	177,2	146,8
Buvayda	65,7	103,5	43,1
Beshariq	43,0	41,9	41,7
Quva	127,8	90,1	94,2
Uchko'prik	55,7	52,8	21,3
Rishton	24,5	44,2	19,6
So'x	57,2	160,2	3,8
Toshloq	54,7	101,9	40,9
O'zbekiston	65,5	109,9	46,1
Farg'ona	55,1	99,5	20,0
Dang'ara	147,1	75,0	125,3
Furqat	85,3	105,1	62,1
Yozyovon	71,0	54,8	22,8

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,% da

2019- yil yanvar-iyul

11,5



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

12,1



Fuqarolik obyektlarini
qurish

76,4



Binolar va inshootlarni
qurish

9,9



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

11,2



Fuqarolik obyektlarini
qurish

78,9



Binolar va inshootlarni
qurish

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Binolar va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **5,4 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,1 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,2 %** punktga ko'payib, **63,5 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,3 %** punktga kamayib, **31,1 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **29,2** % ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **4,4** % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **70,5** % (**9,7** % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,3** % (**5,3** % punktga kamayish) ni tashkil etdi.



2020- yil
yanvar-iyul


Farg'ona viloyatida qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **12,7 %** punktga kamaydi va **16,0 %** ni tashkil etdi. Qolgan **84,0 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **12,7 %** punktga ko`paydi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-iyul oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Farg'ona sh.
788,7

1

2

Marg'ilon sh.
363,1

Qo'qon sh.
217,6

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Rishton t.
24,5

2

1

Toshloq t.
54,7

Beshariq t.
43,0

3



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'lumi

Aloqa telefoni: (73) 249-87-26